



**"KHUMOYUNNOMA" IS A RARE GEM OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF THE
BABURIDS**

Azizkulov A.

Samarkand Economy and Service Institute of Social Sciences

Head of Department, f.f.n., Dots.

a.azizkulov@mail.ru

Annotation

This article describes the philosophical and methodological analysis of the work "Humoyunnoma" by Gulbadanbegim, daughter of the famous statesman, poet and thinker Zahiriddin Muhammad Babur. The article discusses in detail the historical significance of the work "Humayunnama" in the study of the activities of the Baburis in building a centralized state in India.

Keywords: Babur, Gulbadanbegim, Humoyun Mirza, India, Baburid kingdom, historical events, spiritual heritage.

Annotatsiya

Mazkur maqolada mashhur davlat arbobi, shoir va mutafakkir Zahiriddin Muhammad Boburning qizi Gulbadanbegimning "Xumoyunnoma" asarining falsafiy metodologik tahlili bayon etilgan. Boburiylarning Hindistonda markazlashgan davlat barpo etish borasidagi faoliyatini o'rganishda "Xumoyunnoma" asarining tarixiy ahamiyati maqolada batafsil yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Bobur, Gulbadanbegim, Xumoyun Mirzo, Hindiston, Boburiylar saltanati, tarixiy voqealar, ma'naviy meros.

Kirish

Markaziy Osiyo xalqlari ulkan ma'naviy merosning vorislaridir. Uch ming yillik davlatchilik tarixining turli davrlardagi ma'naviy-ma'rifiy yuksalish bosqichlarida ko'plab nodir asarlar yaratildiki, ular hanuzgacha umumbashariy manfaatlar yo'lida xizmat qilmoqda Ayniqsa, Temuriylar hukmronligi Markaziy Osiyo xalqlari ijtimoiy taraqqiyotida alohida ahamiyat kasb etadi. Mutaxassislar bu davrni Markaziy Osiyoda ikkinchi uyg'onish davri ham deb e'tirof qiladilar. Temur va temuriylar kabi ilm-fan, madaniyat va adabiyotni qadrlaydigai, san'atni nozikta'b tushungan, o'zlari ham bu sohalarda ajoyib yutuklarga erishgan siyosiy sulola insoniyat tarixidan deyarli bo'lmagan. Bu sulola vakillari orasida she'r yozmagan, adabiy mashklar kilmagan, fan-madaniyatga homiylik kilmagan biror teuriyzoda bo'lmagan, chunki ijodkorlik va bunyodkorlik sohibqiron Amir Temurning asosiy fazilati edi.

Movarounnahrning poytaxti sifatida Samarqandda tabiiy-ilmiy bilimlar sohasida, xususan, Ulug'bek rahbarligida uning akademiyasida olamshumul kashfiyotlar amalga oshirilgan bo'lsa, Xuroson poytaxti Hirotda Temuriylar hukmronligi davrida ijtimoiy gumanitar fanlar, xususan, tarix, tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohasida katta muvafaqqiyatlar qo'lga kiritiladi. Bundan tashqari Temuriylar



tomonidan yana bir madaniy markaz barpo etiladi. Bu Bobur Mirzoning Hindistonda yangi davlatga asos solishi va uning vorislari tomonidan tarqoq xalqlarni birlashtirib qudratli imperiya tashkil etilishidir. Boburiylar hukmronligi davrida bu imperiyada ilm – ma’rifat, adabiyot va sa’nat, me’morchilik sohasida ko’plab yutuqlar qo’lga kiritiladi. Bobur Mirzo va uning vorislari tomonidan Hindistonda markazlashgan davlat barpo etishilishi va bu imperiyaning har tomonlama gullab yashnaganini butun dunyo hamjamiyati mamnuniyat bilan e’tirof etadi[1.408]. Boburiylar saltanatini bunyod etilishi tarixi yoritilgan asarlardan biri bu Gulbadanbegimning «Xumoyunnoma» asari hisoblanadi. Mazkur asar falsafiy metodologik jihatidan kam tadqiq etilgan. Biz maqolamizda asarning tarixiy ahamiyatini falsafiy metodologik jihatdan yoritishga harakat qilamiz.

METODLAR VA O’RGANILISH DARAJASI

Zahiriddin Muhammad Boburning qizi Gulbadanbegimning “Xumoyunnoma” asarining falsafiy metodologik jihatdan tadqiq etishda ob’ektivlik, retrospektiv tahlil, mantiqiylik va tarixiylikning birligi, qiyosiy tahlil va shu kabi usullardan foydalanildi. Gulbadanbegimning “Xumoyunnoma” asari tarixiy manbashunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etilgan. Mazkur asarning Hindistonda boburiylar saltanatini barpo etishdagi tarixiy ahamiyati, shuningdek, temuriylar va boburiylar faoliyatiga oid boy etnografik, tarixiy, filologik ma’lumotlarning falsafiy tahlili tadqiqotchilarimiz tomonidan to’liq amalga oshirilmagan.

TADQIQOT NATIJALARI

Qomusiy bilim egasi bo’lgan Boburning vorislari ham u singari o’zlarining ijodkorlik qobiliyati bilan ilm ahli oldida katta nufuzga ega bo’lgan. Hattoki temuriy malikalar ham ijod bilan barakali shug’ullanishgan. Buyuk shoir va davlat arbobining qizi Gulbadanbegim ijodkor temuriy malikalardan biridir. Gulbadanbegimning «Humoyunnoma» Bobur tomonidan yaratilgan «Boburnoma»ning mantiqiy davomi hisoblanadi[2]. «Xumoyunnoma»da Bobur podsholigining so’nggi yillari va uning vafoti, shuningdek, Humoyun Mirzoning xukmdorlik davridagi voqealar batafsil bayon etilgan. Humoyunnomada boburiylar xukmdorligining murakkab davri, yagona davlat barpo etishdek qiyin, tahlikali vaziyatlar batafsil yoritib berilgan.

Agar tarixga nazar tashlaydigan bo’lsak, o’rta asrlarda xotin-qizlar orasida tarixchi manbashunos ikki kishi o’tgan ekan. Birinchisi vizantiyalik malika Anna Komnen (XI-XII) bo’lib, o’z otasi Aleksey I Komnen(1031-1118) va akasi tarixini yaratgan bo’lsa, Sharqda bunday vazifani Gulbadanbegim bajaradi, ya’ni, otasi va akasi podshohligi davridagi voqealar bayon etgan «Humoyunnoma» asarini yaratadi. Temuriylar xonadonining malikasi – Gulbadanbegimning o’rta asrlarda Sharqdan xotin-qizlar orasida chiqqan yagona tarixchi ekanligi bugungi kunda millatimizning iftixoridir. Bundan tashqari Boburning zurriyotlaridan Shoh Jahonning qizi Jahonoro va Avrangzebning qizi Zebuniso mashhur shoirlar edi Bobur vafot etganda Gulbadanbegim sakkiz yoshda bo’lgan. Gulbadanbegimning onasi Dildorbegim, asli Soliha Sulton begim bo’lib, Bobur Mirzoning amakisi Sulton Mahmud Mirzoning qizi bo’lgan. Gulbadanbegim Bobur Mirzoning sevimli katta xotini Humoyun Mirzoning onasi Mohim Begim qo’lida tarbiyalanadi. Mohim begim aqlli, dona, ayol bo’lib, Gulbadanbegim tarbiyasiga alohida ahamiyat



beradi. Shu bois Gulbadanbegim temuriylarning yetuk bilimga ega bo'lgan, iste'dodli malikalaridan biri hisoblanib, Xumoyun podshoh saroyida diplomatik ishlardan faol ishtirok etgan. Gulbadanbegimning «Xumoyunnoma» asari bizgacha to'liq yetib kelmagan. Hozirgi mavjud qo'lyozma nusxalarida matn Hindol Mirzoning o'ldirilishi va Xumoyun podshohning bo'yrug'iga ko'ra Kamron Mirzoning ko'ziga mil tortilishi voqeasini bayoni bilan uzilib qoladi. Bu voqealar 1553 yilda sodir bo'lgan. Xumoyun podshoh 1556 yili 49 yoshda vafot etadi. Xumoyun podshoh hayotining so'nggi davrlaridagi voqealar va uning vafoti boshqa tarixiy manbalarda batafsil bayon etilgan. Ammo Gulbadanbegim tomonidan yaratilgan «Xumoyunnoma» asarining xotimasi qaysi davrlardagi voqealarni qamrab olganligi bizga noma'lum bo'lib qolmoqda.

Asarning yozilishiga asosiy sabab, Xumoyunning o'g'li Akbarshohning Hindistonda bobosi Boburning orzusini amalga oshirib, mustahkam imperiyani tashkil etganli hamda saroy tarixchilariga o'z tarixini yozishni buyuradi. Shuning uchun Akbarshoh bobosi Bobur va otasi Xumoyun podshohlarni yaxshi bilgan kishilarga ularning podshohlik davridagi ko'rgan va bilgan voqealarini yozib berishni buyuradi va shu tariqa Gulbadanbegimning «Xumoyunnoma» asari yaratiladi.

Xumoyunnoma asarida asosan, Bobur farzandlari o'rtasida noahillik, toj-u taxt uchun aka-ukalar o'rtasidagi tinimsiz kurash batafsil bayon etilgan. Bobur Mirzonini farzandlari haqida ma'lumot berar ekan shunday deydi: «Podshoh hazratlari Qobilni Mirzaxon qo'lidan osonlik bilan ozod qilganlarida yigirma uch yoshda edilar va hech farzandlari yo'q edi, farzand ko'rishni ko'p orzu qilar edilar. Shu yili Sulton Ahmad Mirzoning qizi o'n yetti yoshli oysha Sulton begimdan bir qiz tug'iladi. Bu qiz shu oyning o'zidayoq nobud bo'ldi. Qobilni oldinishini xudo muborak etdi-ki, (keyinchalik) o'n sakkizta farzand bo'ldi»[3.9]. Boburning vafotidan so'ng farzandlar o'rtasidagi noahillik ularni Hindistondagi vaziyatini tang qilib qo'yadi. Xumoyun podshoh o'z ukalari Kamron Mirzo, Askariy Mirzo va Hindol Mirzolar bilan tinimsiz kurash olib boradi. Gulbadanbegimning yozishicha Xumoyun to'ng'ich farzand bo'lsada, Kamron va Hindol Mirzolarga nisbatanqat'iyatsiz, yumshoq tabiatli bo'lgan. Podshohligini dastlabki vaqtlaridanoq davlatining sarhadlarini ukalariga bo'lib beradi va o'zining vaziyatini mushkullashtiradi. Hatto Hindistonni tashlab chiqib ketishga majbur bo'ladi. Keyinchalik Hindol Mirzo Xumoyun podshoh tomonida bo'ladi ammo, ukasi Kamron Mirzo tufayli ko'p aziyatlar chekadi. Kamron Mirzo qo'lga olinganda butun saroy ahli uni qatl etilishini talab qilganda ham Xumoyun podshoh uzoq uylab so'ng «Kamron Mirzoning har ikkala ko'ziga mil tort!» deb buyuradi.

Temuriy malikalarning o'z aka-ukalarga munosabati juda samimiy bo'lganligi asarda payqash mumkin. Xususan, Xumoyun Mirzoning ikki yarim yashar o'g'li Jaloliddin Muhammad Akbarga Boburning opasi Xonzodabegimning munosabatini quyidagicha tasvirlaydi: «Uni juda yaxshi ko'rar edi. Oyoq-qo'llarini o'pib, xuddi mening birodarim – Bobur podshohning qo'l oyoqlariga o'xshaydi, (o'zi esa) butunlay o'xshaydi, der edilar» [4.82]. Haqiqatdan ham Xonzodabegim yanglishmagan edi. Akbarshoh bobosi Bobur singari jasoratli bo'lib, Hindistonda boburiylar hukmronligini mustahkamlaydi, davlat sarhadlarini kengaytiradi.

«Xumoyunnoma» asaridai opa va uka munosabatini ifoda etadigan yana bir epizod kishini diqqatini o'ziga tortadi. Kamron Mirzo va uning josuslari tomonidan Hindol Mirzoning o'ldirilishini bayon etar ekan Gulbadanbegim shunday yozadi: (Gulbadanbegim va Hindol Mirzo Boburning Dildorbegim ismli



xotinidan tavallud topgan bo'ladilar) «Bilolmadim qanday berahm zolim bu beozor yigitni zulm tig'i bilan bejon qildi. Koshki bu tig' mening yuragim yoki ko'zinga, yoki o'g'lim Saodatyorga yoki Xo'jaxonga tekkan bo'lsa edi. Oh, yuz marta oh va afsus, essiz, ming marta essiz!

Hayhot, oh ey afsus

Quyoshim bulutlar ostida berkildi!» [4.99]

Bu satrlarda Gulbadanbегinning ukasiga nisbatan mehri juda yuqori va samimiy bo'lganligi payqash mumkin. Umuman asar o'quvchida katta qiziqish uyg'otadi.

Falsafiy metodologik jixatdan yondoshadigan bo'lsak avvalo mazkur asar Hindistonda Boburiylar hukmdorligining dastlabki yillaridagi voqea va hodisalar haqida to'liq ma'lumot beruvchi manbadir.

Ikkinchidan, asardagi barcha ma'lumotlar va faktlar ob'ektiv xarakter kasb etadi. Chunki Gulbadanbегim «Humoyunnoma» asarida bayon etilgan barcha voqea va hodisalarni o'z ko'zi bilan ko'rgan, uning ishtirokchisi bo'lgan. Shu jihatdan asar qimmatli tarixiy manba hisoblanadi.

Uchinchidan, asrdagi voqea va hodisalar sodda va ravon, aniq, mubolag'alarsiz bayon etilishi uning badiiy-ilmiy ahamiyatini oshiradi va o'quvchida katta qiziqish uyg'otadi.

To'rtinchidan, asarda voqea va hodisalar bayonidan tashqari boy etnografik ma'lumotlar keltiriladi. Ya'ni, o'sha davrdagi milliy kiyimlarimiz, urf-odat va marosimlarimiz haqida qimmatli ma'lumotlar bayon etiladi. Masalan, Gulbadanbегim ukasi Mirzo Hindolning uylanish to'yini batafsil izohlab berar ekan, barcha faktlar to'g'risida to'xtalib o'tadi. Avvalo nikoh to'yi uchun «Tilsim» to'yxonasining barpo etilishi, to'yda ishtirok etayotgan mehmonlarga qanday sharoitlar yaratilganligi, podshoh atrofida o'tirgan barcha temuriyzoda malikalar to'g'risida ma'lumotlarni bayon etadi. To'yda mehmonlarga tortilgan taomlar va san'atkorlar haqida ham ma'lumotlarni keltirib o'tadi. Albatta, to'yda mehmonlarga tortiq etilgan sarpolar, sovg'a-salomlar haqida ham to'xtalib o'tib shunday deydi: «To'y shunday yaxshi bo'lgan ediki, bunday to'y podsho otamning boshqa farzadlariga muyassar bo'lmadi» [4.51].

Beshinchidan, XVI asrda Temuriylar, aniqrog'i Bobur va Humoyun saroyidagi malikalar va ularning majlislar, to'y hashamlardagi mavqelari va nufuzlari haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, «Tilsim» to'yidagi malikalar haqida to'xtalib o'tar ekan, ularni «mardona kiyimlarin kiyar va zaxgirtaroshlik (o'q otish o'yini, bunda suyak angishvonani bosh barmoqqa kiyib, o'q otganlar. Bu o'yin «zaxgir»-angishvona deb nom chiqargan - S. Azimjonova), chavgonbozlik, tarandozlik kabi har xil hunarlarga usta va sozlardan ko'pchiligini chalar edi» deb ta'riflaydi[4.47]. Bundan ko'rinib turibdiki Temuriy malikalar adabiyot, tarix, musiqa san'ati va diniy sohadagi ilmlardan tashqari harbiy mashqlarni ham puxta egallab olgan ekanlar.

Oltinchidan ma'naviy merosimizning nodir na'munasi bo'lgan bu asar adabiy manbashunoslik va tilshunoslikka oid nodir manbadir. Asar fors tilida yozilgan bo'lsada, Gulbadanbегim ko'pgina o'zbek tili iboralarini va ayrim hollarda mukammal jumalarni keltirib o'tadi[5.21]. Humoyun Mirzo saroyida o'zbek tilida gaplashganlar va Bobur qayd qilgan Andijon dialektida she'r yozuvchi shoirlar saroyda to'planganlar.



4.XULOSALAR

Gulbadanbegimning «Xumoyunnoma» asari tarixiy etnografik va adabiy manbashunoslikka oid qimmatli ma'lumotlar va faktlarni o'z ichiga olgan nodir manbadir. Ma'naviy tahdidlar xuruj qilib turgan bugungi axborotlashgan jamiyatda Gulbadanbegimning «Xumoyunnoma» asari o'quvchi yoshlarda milliy g'urur va iftixor tuyg'usini shakllantirishda, qolaversa, milliy o'zlikni anglashda tarbiyaviy ahamiyat kasb etadigan ma'naviy merosdir. Shuning uchun ham Gulbadanbegimning «Xumoyunnoma» asari Sharq xalqlari ma'naviy merosining nodir durdonasi hisoblanib, hozirgi murakkab globallashuv sharoitida yoshlarimizni milliy qadriyatlarimiz asosida tarbiyalashda muhim nazariy manba bo'lib xizmat qiladi.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Джавахарлал Неру. Открытие Индии. М. 1989. - 408 стр.
2. Бобур Бобурнома. Т. 1989 й. - 368 б.
3. Гулбаданбегим, Заҳириддин Муҳаммад Бобур қизи Хумоюннома Т.: "O'zbekiston" НМИУ, 2016. - 120 б.
4. Гулбадан Бегим (Заҳириддин Бобурнинг қизи) Т. 1959 й. - 112 б.
5. С. Азимжонов, Н. Б. Байкова Сўз боши // Гулбадан Бегим Хумоюннома .Т. 1959 й. 21 бет
6. А. Азизкулов Значение произведения Гулбаданбегим "Хумоюннома" в исследованиях востоковедения // "Востоковедение: история и современность" Международная научно-практическая конференция для студентов, магистрантов, аспирантов и молодых учёных, посвященная 10-летию востоковедческого направления кафедры востоковедения и башкирского языкознания Башкирского государственного университета (Уфа, 6 декабря 2018 г.)
7. А. Азизкулов Хумоюннома Бобурийлар илмий меросининг нодир дурдонаси // «Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳаёти ва фаолияти: замонавий тадқиқотлар ва инновацион ёндашувлар» мавзусидаги республика онлайн илмий-амалий анжумани материаллари 2020 йил 26 июнь Тошкент-2020 йил 259-265 бетлар
8. Yunus Ortikovich Kholikov Philosophical Fundamentals Of The Culture Of Tolerance. The American Journal of Social Science and Education Innovations (ISSN – 2689-100x). – 2021. P. 48-51. Doi : <https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume03Issue09-11>
9. Yunus Ortikovich Kholikov The education of young people on the basis of a spiritual, moral and tolerant culture in the educational process // International journal of philosophical studies and social sciences issn-E: 2181-2047, ISSN-P: 2181-2039 Vol 1, Issue 2 – 2021. p. 63-68. <http://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss>
10. Yunus Ortikovich Kholikov Philosophical Fundamentals Of The Culture Of Tolerance. The American Journal of Social Science and Education Innovations (ISSN – 2689-100x). – 2021. P. 48-51. Doi : <https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume03Issue09-11>



11. Kholikov Yunus Ortikovich Ethical foundations for the development of a culture of tolerance in youth. Philosophical Readings XIII.4 (2021), pp. 112-117. <https://zenodo.org/record/4751681#.YLioHqgzaUl>
12. Xoliqov Yunus Ortiqovich Millatlararo bag'rikenglik madaniyati insonparvarlik va tinchlikning asosiy tamoyili sifatida. Eurasian journal of academic research. – 2021. B. 420-425. <https://doi.org/10.5281/zenodo.5812886>
13. Yunus Ortiqovich Kholikov Moral aspects of national ethnic in bringing up young generation with generosity. Theoretical & Applied Science, - 2019. P. 18-21. DOI: 10.15863/TAS.2019.07.75.5
14. Saydulloevich, Ulugmurodov Elyor. "ISLAMIC CULTURE: THE ESSENCE AND WAYS TO IMPROVE IT." Academicia Globe: Inderscience Research 3.03 (2022): 208-212.